



## JANUBIY HUDUDLARNING TUPROQ IQLIM SHAROYITIGA MOS MAVSUMIY GULLAR YETISHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Nurillayev Ilhom Xolbek o'g'li

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Xayrullayeva O'g'iloy Shuhrat qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10554788>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> January 2024

Accepted: 22<sup>th</sup> January 2024

Online: 23<sup>th</sup> January 2024

### KEY WORDS

Issiqxona, viola, NPK, Fe, modda, Kaliforniya, mis kuporosi, stalyaj, urug', loxirak, biogumus, yomg'irlatib sug'orish, vegetativ, generative, organlar, gullash davri.

### ABSTRACT

Hozirgi paytda kelib tuproqlarimiz strukturasi yomonlashmoqda buning ortidan esa qishloq xo'jalik maxsulotlari va manzarali gullar yetishtirish brogan sari qiyinlashib bormoqda. Ushbu maqolada janubiy hududlarning tuproqlariga va ekologik sharoitiga mos manzarali gullar yetishtirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**KIRISH.** Dunyo go'zalligiga gullar o'z jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bir qarashda o'ziga jalb qiladigan, beqiyosligi bilan insonni lol qoldiradigan gullar hozirgi kunda yurtimizning barcha hududlarida o'z iforlarini taratmoqda. Maqolada bayon etilishicha Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzzmchilik va vinolichik ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy tadqiqot stansiyasining issiqxonasida Viola guli o'stirilmoqda. Hayotiy shakli 1 yillik bo'lgan violaning biologik xususiyatlari o'sish va rivojlanish davomida o'rganilmoqda. Viola O'zbekistonda Binafsha nomi bilan keng tarqalgan. Viola urug'lari Gollandiyadan avgust oyida 1100000 dona dorilangan urug'lar maxsus qopchalarda eksport qilib keltirildi. Urug'larni issiqxona ichidagi 30 metrli stalyajlar ustiga gumusli aralashmaga 15-20 mm chuqurlikda ekildi. Maksimal +25 gradusdan kuchli sovuqqa chidamli gul hisoblanadi. Ekilgan urug'lar sug'orilib, zarur ozuqa berib turiladi. 40 kundan so'ng pikrofla usulida stakanchalarga o'tkazildi. Ilk gullash muddati 25 kun o'tib kuzatildi.

**Tadqiqot maqsadi:** Binafsha gulini Qashqadaryo viloyatiga mavsumdan tashqari o'stirishga moslashtirib, maqbul ekish muddatlarini aniqlashdan iborat. Gullarning biologik va dorivorlik xususiyatlarini o'rganish. Ayni vaqtda kuz faslining oxirgi kunlari bo'lsada, mavsumiy gullar issiqxonalaridan joy olib ekishga tayyor holatda turibdi. Viola guli *Violaceae* oilasiga mansub gulli o'simliklarning bir turi. Bu oiladagi eng kattasi bo'lib, 680 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Aksariyat turlari mo'tadil shimoliy yarim shaqda joylashgan, biroq ba'zilari Gavayi, Avstraliya, va And tog'lari kabi keng tarqalgan hududlarda ham uchraydi. Xususan, *Viola tricolor*, Yevropa va Osiyoning yovvoyi guli, dengiz guli deb ataladi. Respublikamizda 14 ta yovvoyi, 3 ta madaniy turi o'stiriladi. Violaning Binafsha turi davlat reystriga kiritilgan.



Tabiiyki ekish jarayoni hamma uchun qiziq jarayon hisoblanadi. Dastlab ekish uchun substrat tayyorlanadi. Biogumus yoki go'ng (yil oshgan) lardan aralashma tayyorlab olindi va har biri 30 metrli stalyajlar ustiga to'kib chiqildi. Taxtachalar bilan tekislandi. So'ngra mis kuporosi eritmasi suv bilan aralashtirib Aralashmali substratga sepib chiqildi. 4 kun davomida polietilen bilan usti yopilgan holatda qo'yildi, palitelin olingandan so'ng begona o'tlar terib tashlandi. Biogumus aralashma holatida urug' ekishga tayyorlanadi, Issiqxonada viola urug'lari Gollandiyadan maxsus qopchalarga dorilangan urug'lar eksport orqali olib kelindi. Urug'lar inson qo'li bilan sochma tarzida ekildi. Ikkita yoki uchta urug' bitta joyga tushgan bo'lsa siyraklashtirildi. Har biri 30 metrli stalyajlarga 200 000 (ikki yuz mingtadan) jami 5,5 ta staltajlarga 15-20 mm chuqurlikda urug' ekildi. Issiqxona ichi 2 tomondan palitelen bilan o'raldi. Issiqxona xarorati +18 gradus bo'lganda o'sish va rivojlanish normal holatda kechadi. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra 15 kundan so'ng urug'larimiz unib chiqdi va yomg'irlatib sug'orish tizimidan foydalanib ham oziqlantirildi ham sug'orildi. Bu maysalar o'sishi va rivojlanishiga ijobiy tasir etadi Orasidagi begona o'tlar gullarimizga zarar bermasligi uchun terib turildi. Ekilgan kundan boshlab 40 kundan so'ng bo'yi 10-12 sm bo'lgan viola gullarimiz stakanchalarga o'tqazildi. Stakanlarimizga 40% tuproq, 60% chirigan go'ng aralashmasi solindi. Tayyor stakanlar stalyajlar ustiga taxlab chiqildi. Stakanchalarga gulni ekishda chuqurligi 3 sm bo'lgan chuqurlikka ekdik. Shu bilan birga ildiz sistemasi uzun va ko'plik soniga qarab chuqurchalar olindi. Gullar ekilgandan so'ng bir kun to'liq politelin bilan o'rab qo'yildi va sug'orildi. O'suv davrida NPK va bo'y o'stiruvchi va tanasini yo'g'onlashtiruvchi preparate-stimulyatorlar suv bilan birgalikda tayyorlangan aralashma yomg'irlatib berildi. Viola gullari ildiz sistemasi yaxshi nafas olishi uchun stakanchalarda yumshatilib turildi va sarg'aygan barglariga Fe moddasi berildi (20 gr Fe moddasini 100 litr suvga aralashirilgan holda). Ilk bor 24-oktabrda generativ kurtaklardan gullar ochildi. Gullari oq, qizil, sariq, oqda sariq va qora ko'zchali hamda bitta gul qizil sariq qora aralash rangli yirik shaklda. Binafshaning gulidan (0,04%) va bargi (0,05%) dan efir moyi olinadi. Poyasi yer bag'irlab o'sadi. Manzarali gul sifatida korxonada va binolar oldiga ekiladi. Qish faslida ancha past gradusgacha bo'lgan haroratga chidamli. Violaning ko'plab turlari bezak gullari sifatida bog'larda o'stiriladi. Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinolichilik ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy tadqiqot stansiyasining issiqxonasida Viola gullari o'stirildi. Hayotiy shakli 1yillik bo'lgan violaning biologik xususiyatlari o'rganildi. Asosiy ekin sifatida tuproq va go'ng aralashmasiga 15-20 mm chuqurlikda urug'lar ekildi. Barcha jarayonlar aftomatlashgan mexanizm asosida olib borildi. Pirovardida esa yaxshi natijalarga erishildi.

**Xulosa.** Janubiy hududlarning tuproq iqlim sharoitiga mos manzarali gullarni o'stirish tadqiqot natijalariga ko'ra samarali bo'lib, yetishtirish jarayonida tuproq tarkibidagi tuzlar miqdori va suv sifati katta tasir etishi o'rganib tahlil etildi.

## References:

1. Boysunov Nurzod Bekmurodovich, Juraev Diyor Turdikulovich, Nurillaev Ilhom Xolbek o'g'li, & Begmatov Bekzod Elmurod o'g'li. (2023). "RESISTANT TO THE COMPLEX STRESS FACTORS (SALT, DROUGHT, DISEASE) OF THE "OROLBO'YI" REGION, THE YIELD OF SPRING



WHEAT, THE QUALITY INDICATORS OF THE GRAIN WILL BE STABLE HIGHER. ACTIVITY IMPLEMENTED WITHIN THE FRAMEWORK OF DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 193–200. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/148>

2. Ostonaqulov T.E., Nurillayev I.X. SABZAVOT MAKKAJO'XORI NAVLARINI ERTAGI VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI MUDDATLARDA O'STIRILGANDA HOSILDORLIGI // SAI. 2023. №Special Issue 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sabzavot-makkajo-xori-navlarini-ertagi-va-takroriy-ekinlar-sifatida-turli-muddatlarda-o-stirilganda-hosildorligi> (дата обращения: 12.12.2023).

3. Mavlyanova R.F., Yunusov S.A, Karimov B.A Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash. Toshkent-2018

4. Nurillayev , I. X. o'g'li. (2023). "PROSPECTS OF APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS". Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 98–100. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4229>

5. Прививка овощей. Способы прививки овощей. Вэб-сайт: Урожайная грядка. [http://urozhaynagryadka.narod.ru/privivka\\_ovoshey.htm](http://urozhaynagryadka.narod.ru/privivka_ovoshey.htm)

6. [https://www.vigyanvarta.com/adminpanel/upload doc/VV 1220 17a.pdf](https://www.vigyanvarta.com/adminpanel/upload_doc/VV_1220_17a.pdf)

7. Diyorova Muhabbat Xurramovna, Nurillayev Ilhom Xolbek o'g'li\*. (2023). THE SIGNIFICANCE OF VEGETABLE WELDING OF VEGETABLE CROPS (CUCUMBER AS AN EXAMPLE). Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 143–145. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/349>